

## **BIOLOGIYA O'QUV XONASINI TALAB DARAJASIDA TASHKIL QILISH VA JIHOZLASH METODIKASI.**

Mirzaliyev Abdujabbor Mamatyusuf o'g'li<sup>1</sup>

Erkinjonov Qilichbek Dilmurod o'g'li<sup>2</sup>

FarDU, zoologiya va umumiyligi biologiya kafedrasini o'qituvchisi<sup>1</sup>

FarDU, biologiya yo'nalishi talabasi<sup>2</sup>

### **Annotatsiya**

Maqolada ta'lismi tarbiya jarayonida o'quv maskanlarining olib borilayotgan o'quv jarayonlari, ta'limida yangi samarali yo'llar, shakllar, turli uslublar, biologiya o'quv xonasini talab darajasida tashkil qilish va jihozlash metodikasi kabi xususiyatlari alohida tadqiq etilgan.

Hozirgi davrda zamon talablariga ko'ra ta'lismi tarbiya ishlarni tashkil etishda ko'zlanayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish vazifalari o'qituvchilar zimmasida. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyat Yuritishiga bog'liq: bolalarni o'qitish, darsdan va ta'lismi muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, jamoatchilik o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish masalalari to'g'risida bugungi kunda ta'limga katta e'tibor berilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib yoshlarga zamon talablari asosida ta'lismi tarbiya berishdek muammoni hal qilish endilikda barcha o'quv maskanlarida olib borilayotgan ta'lismi-tarbiya jarayonlarini qayta ko'rib chiqish, ta'limida yangi samarali yo'llar, shakllar, turli uslublar, vositalarini ishlab chiqishlikni talab etadi[1].

**Vazifalar:** o'quv xonasini to'g'ri tashkil qilish:

- -biologiya o'quv-laboratoriya xonalariga qo'yiladigan talablarni bilish;
- -biologiya xonasining o'quv-zaxirasini bilish;
- -ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishish;
- -fan xonasini zaruriy hujjatlarini tayyorlash;
- -o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini va multimedia namunalari bilan tanishish.

**Biologiya o'quv-laboratoriya xonasiga qo'yiladigan talablar.**

- ✓ Biologiya o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini ro'yxati va ulardan foydalanish qoidalari.



- ✓ O'quv-labaratoriya asbob-uskunalarini va multimedia vositalaridan dars jarayonida foydalanish yo'l-yo'riqlari.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining maktab ta'limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishlarida maktablarda o'quv va labaratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv uslubiy materiallar bilan ta'minlash zarurligi ko'rsatilgan.

Biologiya o'quv xonasining talab darajasida jihozlanishi o'quchilarning biologiya fani asoslarini egallashiga zamin tayyorlaydi hamda ta'lim samaradorligini ortirish imkoniyatini beradi.

### **Biologiya xonasi quyidagi maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan**

- -biologiyani o'qitishda ko'rgazmali;
- -ta'lim samaradorligini oshirishga yordam;
- -mustaqil fikrlovchi, ijodkor, barkamol shaxsni tarbiyalash kabi asosiy maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan.

### **Fan xonasiga qo'yiladigan umumiy talablar.**

**Pedagogik talablar:** o'quv labaratoriya xonalari undagi jihozlar hamda vositalar darsda o'rganiladigan mavzu mazmunini yoritishga, o'quvchilarni obye'ktlarning tuzilishini to'liq tasavvur etishlariga yo'naltirishi, biologik ta'lim jarayonida ko'rgazmalik prinsipini amalga oshirish, shuningdek, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning biologiya ko'nikmalarini tarkib toptirilishi, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash va kasb tanlashlariga yordam berishga qaratilgan[2,3].

**Psiko-fiziologik talablar:** Biologiyadan dars, darsdan tashqari ishlarni o'tkazishda o'quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ko'rgazma vositalarida ranglar va shakl uyg'unligiga erishish orqali o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning tahsil olish jarayonini unumli ta'minlash zarur.

**Xavfsizlik va gigiyena talablari:** Xonadagi o'quv jihozlarning barchasi ta'limning texnikaviy vositalari va mehnat gigiyenasi, sanitariya-gigiyena hamda texnika xavfsizligi talablariga javob berishi lozim. O'quv xonasida texnika vositalari (asbob-uskunalar) ni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi "eslatmalar" bo'lishi kerak.

1. Kabinetning tabiiy va sun'iy yoritilishi-tabiiy va sun'iy talablariga mos bo'lishi kerak.

2. O'quv binosi oynalarining joylashishi janubga, sharqqa yoki janubi-sharq tomoniga qaragan bo'lishi kerak.
3. Xonaning yoritilishi chap tomonlama bo'lishi, ikki tomonlama yoritilganda har tomonlama yorug'lik tushishi, agar xona 6 m uzunlikni tashkil etsa, shiftning balandligi kamida 2,2 m bo'lishi kerak.
4. Yoritgichlar oynaga parallel ravishda qator yo'naltiriladi. Qatorlar bo'y lab yoritgichlarning alohida o'rnatilishiga e'tibor berish lozim. Sinf doskasini tepasiga 2 ta parallel yoritgichlar o'rnatiladi. Yoritgich doskasning Yuqori chekkasidan 0,3m yoki 0,6m. Doska oldiga sinfga tomon o'rnatiladi.
5. Xona bo'yoqlari mo'ljalga qarab issiqroq, yoki sovuqroq tonda nimrang bo'lishi kerak. Janubga tomon qaragan xonalar sovuq ranglarda, ya'ni, och moviy, kulrang, yashil ranglarda bo'yaladi. Shimolga tomon joylashgan xonalar sariq, pushti ranglarga bo'yaladi. Oq, qora, jigarrang, qizil, ko'k ranglar tavsiya etilmaydi.
6. Labaratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilgandan keyin xona derazasi ochilib shamollatilishi lozim.
7. Sinf devorlari tekis, silliq, namlab tozalashga qulay bo'lishi kerak.
8. Sinf eshigi va deraza romlari devor rangiga mos bo'lishi kerak.
9. Devorlarda yorug'likning qaytish koiffitsenti 0,5-0,6; shiftda 0,7-0,3; pollarda 0,3-0,5 bo'lishi kerak.
10. Sinf xonasi, labarant xonasining issiqligi, ventilyatsiyasi hisob-kitobi olinishi, xona harorati 18-21°C, havo namligini 40-60 foizni tashkil etishi kerak.
11. Xonaning elektr toki bilan taminlanishi GOST talablari asosida bo'lishi kerak.



**Estetik talablar:** Xonaga qo'yilgan har bir jihoz, shuningdek, ularning elementlari va umumiyo ko'rinishi go'zallik qonuniyatlariga javob berishi, o'quvchilarning badiiy didini tarbiyalash o'quvchilarda ham qoniqish hissini hosil qilish kerak.

**Texnikaviy talablar:** biologiya o'quv xonasida o'quvchilar quyidagi xavfsizlik qoidalari amal qilishlari shart:

- labaratoriya mashg'ulotlarida ruxsatsiz texnika vositalari, asbob-uskunalarga tegish man qilinadi;
- ish boshlanishdan avval o'quvchilar topshiriqni sinchiklab o'rganishlari, ish bilan bog'liq bo'lган texnika xavfsizligi qoidalari, jihozlari, asbob-uskunalari, materiallar bilan tanishishlari hamda ularni ishlatish qoidalari to'g'risida ma'lumotlarni olishlari lozim;
- o'quv xonasidagi mebel va jihozlar, xavfsiz ish sharoitlari ta'minlanishi kerak;

-zonadagi elektr simlari butunlay izolyatsiya qilingan bo'lishi kerak hamda elektr tarmog'idan uch shtepsinli rozetkalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

-o'quv xonasida baxtsiz hodisalar yuz berganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun birinchi yordam aptechkasi bo'lishi shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

- 1.Qodirov A., Xaydarov K. biologiya o'qitish metodikasidan laborotoriya mashg'ulotlari pedagogika
- 2.Saidaxmedov N., Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot), T., "Moliya", 2003.
- 3.Tolipova J.O., G'ofurov A.T., Biologiya ta'limi texnologiyalari. "O'qituvchi", 2002.

